



*2024- yil yanvar-iyul oylari uchun  
dastlabki ma'lumot*

# **TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

2024- yil yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3162,5 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,7 mln. AQSH dollariga yoki 3,5 %ga kamaydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul 2024 y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **3 162,5** -3,5 %

(2023- y.: **3 277,2**)



Saldo

2024- y.: **-1 079,9** (2023- y.: -1 109,2)




### Eksport

2024- y.: **1 041,3** -3,9 %

(2023- y.: **1 084,0**)

TSA dagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **2 121,2** -3,3 %

(2023- y.: **2 193,2**)



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 041,3 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,9 %ga kamaydi) va import hajmi 2 121,2 mln. AQSH dollariga (3,3 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -1 079,9 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**  
(2024- yil yanvar-iyul mln. AQSH dollari)

<b>Rossiya</b>	<b>XXR</b>	<b>Qozog‘iston</b>	<b>Turkiya</b>	<b>Belarus</b>
TSA – 866,6	TSA – 832,8	TSA – 421,2	TSA – 213,7	TSA – 75,8
Eksport: 324,5 Import: 542,1	Eksport: 318,6 Import: 514,2	Eksport: 67,9 Import: 353,3	Eksport: 113,4 Import: 100,3	Eksport: 10,9 Import: 64,9
 27,4 %	 26,3 %	 13,3 %	 6,8 %	 2,4 %
<b>Italiya</b>	<b>Tojikiston</b>	<b>Germaniya</b>	<b>Qirg‘iz Respublikasi</b>	<b>Afg‘oniston</b>
TSA – 59,9	TSA – 57,2	TSA – 54,6	TSA – 49,9	TSA – 32,6
Eksport: 8,7 Import: 51,2	Eksport: 31,3 Import: 25,9	Eksport: 3,6 Import: 51,0	Eksport: 19,8 Import: 30,1	Eksport: 32,3 Import: 0,3
 1,9 %	 1,8 %	 1,7 %	 1,6 %	 1,0 %




## YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	683,4	866,6
Eksport	259,7	324,5
Import	423,7	542,1
<b>XXR</b>	799,9	832,8
Eksport	254,3	318,6
Import	545,6	514,2
<b>Qozogʻiston</b>	540,7	421,2
Eksport	61,0	67,9
Import	479,7	353,3
<b>Turkiya</b>	292,4	213,7
Eksport	196,2	113,4
Import	96,2	100,3
<b>Braziliya</b>	159,1	109,0
Eksport	0,0	0,0
Import	159,1	109,0
<b>Belorus</b>	57,8	75,8
Eksport	13,3	10,9
Import	44,5	64,9
<b>Germaniya</b>	72,3	54,6
Eksport	5,8	3,6
Import	66,5	51,0
<b>Italiya</b>	70,6	59,9
Eksport	13,7	8,7
Import	56,9	51,2
<b>Shveytsariya</b>	5,2	50,3
Eksport	1,0	1,7
Import	4,2	48,6
<b>Tojikiston</b>	56,1	57,2
Eksport	26,2	31,3
Import	29,9	25,9




## HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)\*





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,7 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,6 %ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,6 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 52,3 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyul oylarida 1 507,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 471,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 035,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, ulushi, %da)

Rossiya – 27,4



Qozog'iston – 13,3



Belarus – 2,4



Qirg'iz  
Respublikasi – 1,6



Turkmaniston – 0,4



Tojikiston – 1,8



Ozarbajjon – 0,2



Ukraina – 0,4



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (27,4%), Qozog'iston (13,3%) hamda Belarus (2,4%) davlatlari bilan qayd etildi.





Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 809 taga yetdi va ular tomonidan 1 041,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 3,9 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul ulushi %da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.





## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>1 084,0</b>	<b>1 041,3</b>	<b>92,6</b>	<b>96,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	122,8	122,9	115,3	100,1	11,3	11,7
Ichimliklar va tamaki	5,0	6,9	2,3 m.	137,3	0,5	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	30,7	35,6	71,4	116,0	2,8	3,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	3,8	7,0	152,1	183,2	0,4	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	5,4	41,7	9,2 m.	0,1	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	42,2	56,1	95,3	132,9	3,9	5,4
Sanoat tovarlari	695,0	634,2	84,2	91,2	64,1	60,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	30,5	35,0	90,8	114,5	2,8	3,4
Turli xil tayyor buyumlar	150,7	135,4	134,9	89,9	13,8	13,0
Xizmatlar	2,7	2,8	91,1	103,1	0,3	0,3


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (60,9%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,7%) va turli xil tayyor buyumlar (13,0%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

*O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.*

2024- yilning yanvar-iyul oyida MDH mamlakatlarga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi)




2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,2 % ni tashkil etdi.

## TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyul, mln.AQSH doll.)\*



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyul oyida 95,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 36,2 mln. AQSh dollariga teng 75,8 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 28,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 20,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 64,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyul, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va  
rezavorlar  
20,1 ming tonna  
28,2 mln.  
AQSH dollari

Uzum  
2,7 ming tonna  
3,5 mln.  
AQSH dollari

Yeryon-g'oglar  
0,5 ming tonna  
0,7 mln. AQSH  
dollari

Sabzavotlar  
75,8 ming tonna  
36,2 mln. AQSH  
dollari



## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 2 121,2 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,7 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (24,2%), sanoat tovarlari (12,8%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,1%) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,0 mln. AQSH dollariga kamaydi va 2 121,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 6,6 mln. AQSH dollariga yetdi.




## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mn. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nis- batan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>2 193,2</b>	<b>2 121,2</b>	<b>120,7</b>	<b>96,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	391,5	430,9	100,8	110,1	17,8	20,3
Ichimliklar va tamaki	3,7	3,7	136,0	99,0	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	321,7	293,9	91,2	91,4	14,7	13,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	164,4	272,8	2,9 m.	165,9	7,5	12,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	41,9	50,9	118,0	121,3	1,9	2,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	220,6	193,3	109,8	87,6	10,1	9,1
Sanoat tovarlari	357,5	272,1	98,3	76,1	16,3	12,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	638,1	513,5	185,6	80,5	29,1	24,2
Turli xil tayyor buyumlar	50,3	38,0	77,8	75,6	2,3	1,8
Boshqa tovarlar	0,6	45,5	33,1	71,5 m.	0,0	2,1
Xizmatlar	2,9	6,6	56,5	2,3 m.	0,1	0,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko‘ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-iyul natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 48,8 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 %ga ko‘paydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyul oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog‘iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 79,1 %ni tashkil etdi.



### TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)

